

ZIYOVUDDIN SHAHARCHASI

Sadinov Ma'rufjon Normumin o'g'li

*SamDCHTI o'qituvchisi*

Xoshimurodova Sevinch Faxriddinovna

*SamDCHTI 2-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Ziyovuddin tarixi va ushbu shaharcha haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

**Annotation:** In this article, we have information about the history of Ziyovuddin and this town.

**Аннотация:** В этой статье мы имеем информацию о Зийовуддине и истории этого города.

**Kalif so'zlar:** Paxtachi, temir yo'l, tog'lar, Zarafshon tizmasi, Dabusqal'a, Buxoro amirligi, Ziyovuddin qal'asi.

**Key words:** Pakhtachi, railway, mountains, Zarafshan ridge, Dabusqal'a, Bukhara emirate, Ziyovuddin qal'asi.

**Ключевые слова:** Пахтачи, железная дорога, горы, Зарафшанский Хребет, Бухарский эмират, Зиёвуддин кальаси.

Har bir davrning, har bir shaharning o'z tarixi bor. Shu qatorda, Ziyovuddin

vohasi ham uzoq o'tmishga ega. Bu vohaning tarixiga nazar tashlasak, voha 2 ming yildan ko'p vaqt jarayonida Dabusiy nomi bilan atalgan. 100 yillar davomida esa Ziyovuddin deb yuritilgan.

Ziyovuddin shaharchasi qadimdan O'rta Osiyo temir yo'lining poyezdlar to'xtab o'tadigan manzilgohi bo'lib kelgan. U manzilda turli xil millat vakillari, shu jumladan o'zbek, rus, qirim-tatar, yaxudiy va qozoq millati vakillari yashab o'tgan. Shaharchada "Paxtakor ovozi" tuman gazetasi bosmaxonasi, paxta zavodi, moy zavodi, qishloq xo'jalik mashinalarini tamirlash korxonasi ya'ni O'z savxoz texnika korxonalari ishlab turgan. Ziyovuddin shaharchasi uzoq tarixdan buyon hozirgi Paxtachi tumanining markazi hisoblanadi.

1886-1887-yillar davomida Buxoro-Ziyovuddin-Samarqand temir yo'llari Qurilgan. Temir yo'llarning belgilangan joylarida bekatlar tashkil etilgan. O'sha bekatlarga ruslar ko'chirilib keltirilgan va rus mahallasi barpo bo'lgan.

1963-yilda Paxtakor tumani (hozirgi Paxtachi) Narpay tumani tarkibiga qo'shilgandan keyin barcha tashkilotlar Narpay tumaniga ko'chib ketdi. Shu davrda shaharchada qurilish ishlari deyarli to'xtab, shaharcha qoloq

shaharchaga aylandi. 1973-yil 12-aprelda Paxtachi tumani nomi bilan yana Narpay tumanidan ajralib chiqdi.

Buxoro amirligi davrida hozirgi Ziyovuddindan 15km sharqda Ziyovuddin qal'asi, 5km shimoli-sharqda Buvi Ziyovuddiniy qishlog'i bo'lgan. Nomi shundan kelib chiqqan.

Paxtachi tumani haqida so'z yuritar ekanmiz, shu o'rinda Dabusqal'a muhim

o'ringa ega . Dabusqal'a Zarafshon sohilida joylashgan bo'lib, uni Dabusiy, Dabusiya qal'asi, Dabus, Qal'ai Dabus, deb atashadi. Qadimda bu joyda katta shahar mavjud bo'lgan ekan, ammo bugungi kunda bu yerda shahar mavjud emas ekan. Dabusqal'a taxminan uch ming yillik tarixga ega. Bu shahar Buyuk Ipak yo'lida joylashgan bo'lib, mustahkam qal'alardan hisoblangan. Dabusqal'a Zarafshon vodiysidagi eng qadimiy va eng mashhur shaharlardan biri hisoblanadi.

Paxtachi tumanining jonkuyar vakili, mehnat qahramoni Zulayho Norqulova

tumanga rahbar etib tayinlandi. U rahbarlik qilgan yillarda shaharchamizda ko'p

qavatli uylar, asfalt ko'chalar, ko'p tarmoqli shifoxona, moy zavodi, g'isht zavodi, asfalt zavodlari va yangi temir yo'l manzilgohi qurilib ishga tushirilgan. Mehnat qahramoni Zulayho Norqulova rahbarligida ulug' Vatan urushi qahramoni Qudrat Suyunov xiyoboni barpo etildi.

Qarnab yo'lagi g'arbida joylashgan Darvozaqir Zirabuloq tog'larini yemirilgan va uncha baland bo'lmagan Ziyovuddin tizma tog'lari bilan tutashtirib turadi. Ziyovuddin tog'i bir necha past tog'lardan iborat. Turli yo'nalishdagi jarlik, kichik-kichik soylar, vodiylar tog'ni kesib o'tgan. Ziyovuddin tog'lari bag'rida bodom, shuvoq o'sadi.<sup>1</sup>

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin davlat rahbarlari rahnamoli-

gida Ziyovuddin shaharchasi yanada chiroy ochdi. Yangi bekatlar, yangi bozor, yangi shifoxonalar, istirohat bog'lari, san'at maktabi va ko'p qavatli uylar qurilib ishga tushirildi. Ziyovuddin shaharchasi Ziyovuddin shahriga aylandi.

Tuman viloyatning g'arbiy qismida joylashgan: Zarafshon tizmasining

Davomi bo'lgan Zirabuloq va Ziyovuddin tog'lari tuman hududini ikki qismga –sug'orilmaydigan keng Qarnob cho'liga va shimoliy-Zarafshon vodiysining sug'oriladigan chap sohili tekisligiga ajratib turadi. Tumanning

<sup>1</sup> Sanayev I. "Ziyovuddin tarixi". – T. Sharq 1995. 18-19-bet.

shimoliy qismidan Zarafshon daryosi oqib o'tadi. Uning o'zani ancha past bo'lganligidan suv chiqarish qiyin. Shuning uchun ekinlarni sug'orishda Narpay kanalidan foydalanilgan.

Tuman xo'jaligi, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Tumanda paxtachilik, g'allachilik, polizchilik, chorvachilik va pillachilik bilan shug'ullaniladi. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i – paxtachilik. Qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlarga paxta, don, poliz, sabzavot, beda va yem-xashak ekinlari ekiladi.

Paxtachi tumanida muzey ham mavjud bo'lib, bu muzey 1970-yilda dastlab 22-maktabda tarix o'lkashunoslik muzeyi bo'lib tashkil topgan. Sobir Eshniyozovning tashabbusi bilan 1985-yilda yangi bino quriladi. 1988-yilning bahorida Paxtachi tuman tarixi muzeyi yangi binoda faoliyat ko'rsata boshladi. Bu muzey Buyuk Ipak yo'lida joylashgan bo'lib, muzey uchun qurilgan bino 565 kv metrni tashkil etadi.

Paxtachiliklar shuxrati respublika bo'ylab keng yoyilgan o'z tumanlari bilan

haqli ravishda faxrlanadilar. Chunki, o'zi tug'ilib o'sgan yurtni kishi qancha sevsa, qancha e'zozlasa arziydi.<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarix inson uchun muhim ahamiyat kasb etadi. 1-prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek “ Tarixsiz kelajak yo'q “. Avvalambor, inson o'zligini anglashi uchun o'z tarixini o'rganishi joiz. Shu qatorda Ziyovuddin tarixi ham o'z aholisi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ziyovuddin tarixini o'rganish orqali biz jamiyatda ko'p asrlar ilgari mavjud bo'lgan madaniyat va sivilizatsiyalar haqida bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, Ziyovuddin vohasi uzoq tarixga ega. Bu vohaga Ziyovuddin nomi Amir Haydar tomonidan berilgan. Aslida Ziyovuddin so'zi arabcha so'z bo'lib, “ ziyo ad-din “ – “ dinning nuri “ degan ma'noni anglatadi. Buxoro amirligi 27 ta beklikka bo'lingan. Ziyovuddin bekligi shularning biri hisoblanib, beklilik bir nechta amlokdorlikdan iborat bo'lgan.<sup>3</sup> Hozirgi Paxtachi tumanining Ziyovuddin shahri

shu nomdagi temir yo'l stansiyasi atrofidagi turar joylar negizida paydo bo'lgan. Har bir makonning o'z tarixi bo'lganidek, Ziyovuddin shahrining ham tarixi mavjud. Bu tarix hali ham o'rganilib kelinmoqda.

<sup>2</sup> Sanayev I. “ Ziyovuddin tarixi “. - T. Sharq 1995. 377-378-bet.

<sup>3</sup> Yusupova Nargiza. Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti o'qituvchisi maqolasidan 261-bet.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sanayev. I. " G'ubor ostidagi haqiqatlar "
2. Sanayev. I. " Ziyovuddin tarixi ".- T. Sharq 1995.
3. Yusupova Nargiza. Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti o'qituvchisi maqolasi.